

Epidemiologik vaziyatni o'nglash uchun davlat idoralari, jamiyat institutlari va aholi birligi zarur

Xabaringiz bor, Respublika maxsus komissiyasi qarori bilan amaldagi karantin cheklovlari 15-avgustga qadar uzaytirildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 23-iyul kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida ta'kidlaganidek, mamlakatda epidemiologik vaziyatni o'nglash zarurati davlat idoralari, jamiyat institutlari va aholi oldiga muhim vazifalar qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori o'rinbosari Shafoat NURULLAYEVA bilan suhbatimiz ana shu mavzu doirasida bo'ldi.

- Karantin muddatining uzaytirilishi hududlarda epidemiologik vaziyatni mustahkamlash hamon dolzarb bo'lib qolayotgani va bu borada nafaqat davlat, balki jamiyatimizning ham barcha imkoniyatlarini keng ishga tushirishni, shuningdek, muammoni yengib o'tish uchun kuchlarni birlashtirish lozimligini anglatadi, - deydi Sh.Nurullayeva. - Mamlakatimizda koronavirus bilan bog'liq vaziyat bevosita davlatimiz rahbari tomonidan nazoratga olingan bo'lib, har bir yig'ilishda bu masalaga e'tibor qaratilmoqda, aniq vazifalar belgilab olinmoqda, chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Muammoni yengish borasida bu juda muhim yondashuv bo'lib, amalda hech bir fuqaro bunday ko'rinmas yov oldida yolg'iz emasligi, aksincha, davlat himoyasida ekanligidan dalolat.

Kutilmaganda paydo bo'lgan ushbu pandemiya barcha mamlakatlarni sarosimaga solgani, undan davo imkoniyatlari haligacha yaratilmagani bois, ko'plab davlatlar hamon o'zlarini o'nglab olmayotgani bor gap. Ayrim mamlakatlarda infeksiya yana kuchayayotgani kuzatilmoqda. Bugungi kunga kelib dunyo bo'yicha ushbu kasallikdan zararlanganlar soni 16 million kishidan oshib ketdi. Kunlik o'sish 275 mingdan ortiq kishini tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich 2020-yilning 1-aprelida 925 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, may oyi boshida ularning soni 3,3 million kishiga yetdi. Dunyo bo'yicha bugungi kungacha o'sish 1-aprelga nisbatan 16 barobarni, may oyi boshiga nisbatan, ya'ni ko'pgina mamlakatlarda karantin choralari yumshatilganidan so'ng 6 barobarni tashkil qilmoqda.

Mutaxassislar dunyoda bunday epidemiologik holatning kuchayishi aynan karantin choralarining yumshatilishi, ayrim mamlakatlarda ularning bekor qilinishi va, ayniqsa, ushbu sharoitda ko'plab odamlarning sanitariya-epidemiologik va ijtimoiy qoidalarga rioya qilmay qo'ygani sabab bo'layotganini ta'kidlashmoqda.

Mamlakatimizda 16-may holatiga, ya'ni qat'iy karantin choralari yengillashtirilgan kunga qadar koronavirus infeksiyasidan zararlanganlar soni 2 ming 738 kishini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib kasallanganlar soni 7 barobarga ko'paydi. Bunday vaziyat yuzaga kelishiga qat'iy karantin choralari yengillashtirilganidan keyin ayrim korxonalar va aholi orasida saqlanib qolingan karantin talablariga, gigiyena qoidalariga rioya etmaslik asosiy sabablardan bo'ldi, deyish mumkin. Shu bois, infeksiya tarqalishini jilovlashda eng asosiy vazifa tegishli karantin choralarining barcha tomonidan qat'iy qo'llanilishidir.

- Darhaqiqat, "COVID-19" bilan kasallanganlar sonining ortishiga karantin choralarining yumshatilishi sharoitida aholi orasida saqlab qolinishi shart qilib belgilangan ayrim gigiyenik va ijtimoiy talablarga qat'iy rioya qilmaganlik holatlari asosiy sabab qilib ko'rsatildi. Yana qanday omillar kasallikning avj olishiga sabab bo'ldi, deb o'ylaysiz?

- Bunday ko'psonli odamlar kasallanishi bilan bog'liq vaziyatga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha omillar yagona tizim doirasida, o'zaro bog'liq holda harakatlanishi maqsadga muvofiq, deb o'ylayman. Xususan,

pandemik vaziyatni barqarorlashtirishning natijadorligi samarali boshqaruv tizimi, jumladan, sog'liqni saqlash sohasining mustahkamligi, bemorlarni davolash uchun yaratilayotgan sharoitlar, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotidagi vaziyat bilan bir qatorda aholining tibbiy madaniyati, uning pandemiya sharoiti talab qiladigan qoidalarga to'liq va qat'iy rioya qilishiga ham bog'liq, desak to'g'ri bo'ladi.

Shu ma'noda aytish lozimki, may-iyun oylarida qat'iy karantin choralari anchagina yengillashtirilganligi, ayrim korxonalar va aholi orasida "boshqacha" qabul qilindi. Jamiyatda, garchi har kun ommaviy axborot vositalari, tibbiyot xodimlari tomonidan pandemiyaning og'ir oqibatlari to'g'risidagi ogohlantirishlar hamda karantinning saqlab qolingani ayrim muhim talablariga rioya qilish zarurligi haqidagi chaqiruvlarga qaramasdan, "karantin bekor bo'ldi, endi oldingi hayot tarziga qaytamiz", degan tushuncha va xatti-harakatlar kuchaygani kuzatildi.

Masalan, mamlakatda o'rnatilgan karantin talablariga joylarda va poytaxtimizda bepisandlik bilan qaralib, ularga rioya etmasdan to'ylar o'tkazish, buning natijasida yuzlab kishilar koronavirus infeksiyasini yuqtirgani to'g'risida xabarlar ko'p tarqaldi. Bu esa, ushbu kasallikning vaktsinasi va davo dorisi hali topilmagan sharoitda mamlakatimizda epidemiologik vaziyatning jiddiylashuvi sabablaridan biri bo'ldi.

Shunday sabablardan yana biri, umumiy ovqatlanish obyektlarining aksariyatida tartib-qoidalarga rioya qilinmaganidir. Belgilanganidek, 4 kishidan ortiq bo'lmagan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish o'rniga 10 va undan ortiq kishilar ishtirokida tug'ilgan kun va ziyofatlar o'tkazish holatlari kuzatildi.

Jamoat transportlarida o'rnatilgan karantin qoidalariga rioya etilmaganlik ham (xususan, avtoulav salonlarida yo'lovchilar sonining ko'p bo'lishiga yo'l qo'yish) ushbu kasallik bilan zararlanganlar soni ortishiga sabab bo'ldi, deyish mumkin.

Bundan tashqari, dehqon va kiyim-kechak bozorlarida belgilangan karantin qoidalarining buzilishi, tana harorati yuqori bo'laturib bozor hududiga savdogar va xaridorlar kirishiga ruxsat berilishi, bozorlar hududida niqobsiz yoki nomigagina niqob taqib yurish holatlarining bozor ma'muriyatlari tomonidan yetarli darajada nazorat qilinmaganligi ham salbiy oqibatlarga - aholi orasida koronavirusdan zararlanish ortishiga ta'sir qildi.

Yana bir tashvishli holat haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrimlar tibbiyot niqoblarini o'z sog'lig'ini o'ylab emas, balki "talab etilayotgani uchun"gina taqishayotganlari ko'zga tashlanmoqda. Niqoblarni bir necha kunlab almashtirmasdan taqib yurishni odat qilganlar ham yo'q emas. Bu antisaniitariya holatining yomonlashuviga sabab bo'lishi mumkinligini mutaxassislar tasdiqlashmoqda. Bugungi kunda niqoblarni aptekalardan sotib olish ancha bemalol bo'lib qolganini, qolaversa, bir parcha matodan uy sharoitida ham shunday niqoblarning bir nechtasini tikib olish, uni yuvib, dazmollab ishlatish mumkinligini inobatga olib, bu boradagi tushuntirish ishlarini kuchaytirish lozim deb o'ylayman.

- Prezidentimiz ta'kidlaganidek, biz pandemiya sharoitida yashashga o'rganishimiz lozim. Uzoq muddat karantin joriy qilish imkonsiz. Karantin yumshatilgan taqdirda esa, kasallikdan zararlanishning har kunlik soni bir necha barobarga oshishi mumkin. Bunday vaziyatga biz tayyormizmi? Minglab aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatish imkoni yetarlimi, o'lim holatlari keskin oshib ketmaydimi?

- Karantin muddatining 15-avgustgacha uzaytirilishining sababi ham shunda. Mamlakatimizda bugungi kunga kelib epidemiologik holat o'nnglanmoqda, tez tibbiy yordam faoliyati normallashtirilmoqda, kasallanganlar uchun qo'shimcha joylar yaratilmoqda. Shuni inobatga olish kerakki, davlatimiz hozirgidek pandemik vaziyat bilan birinchi marta to'qnash kelmoqda. Biz jarayon davomida bilimlarimizni oshirib, kamchiliklarimizni to'g'rilab bormoqdamiz. Hozirgi o'rnatilgan cheklovlar yetarli darajada yengil xarakterga ega bo'lib, ularni apreldagi cheklovlar bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Karantin choralari asosan xizmat ko'rsatish va umumiy ovqatlanish sohalariga tegishli bo'lib, ular odamlar ko'p to'planadigan tarmoqlar hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati davom etmoqda. Iqtisodiy faollikning keskin pasayishini kutish kerak emas. Aksincha, faoliyati to'xtab qolgan korxonalarining 70 foizini shu yilning sentyabr oyida, yil oxirigacha esa qolgan barchasining faoliyatini tiklash rejalashtirilmoqda. Epidemiologik vaziyatning yaqin kelgusida barqarorlashuvi karantin cheklovlarini yengillashtirishga imkon beradi. Vaziyatning barqarorlashuvidan kelib chiqib, cheklovlar ta'sir qilgan korxonalar faoliyati tiklanishi uchun yordam ko'rsatilishi nazarda tutilmoqda. Hokimlarga iqtisodiy faollikni rag'batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq va tushunarli topshiriqlar berilgan. Shu bilan birga aholining salomatligini himoya qilish va uning iqtisodiy farovonligini ta'minlash o'rtasida samarali muvozanatni shakllantirish davlatimizning asosiy maqsadi bo'lib qolmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qat'iy karantin choralarining qayta joriy etilishi kasallik yuqishi holatlarini jiddiy kamaytirish, ya'ni uning "zanjirini uzish" orqali koronavirus infeksiyasidan zararlangan, og'ir ahvoldagi bemorlarga e'tiborni kuchaytirib, o'lim holatlarini keskin kamaytirish imkonini beradi. Shu bois, barchamiz karantin talablari, sanitariya-gigiyenik hamda ijtimoiy qoidalarga qat'iy rioya qilishimiz, shifokorlar maslahatlariga tayanib, ushbu ko'rinmas yovni birgalikda yenga olishimizga ishonishimiz lozim.

Manba